

**HOZIRGI O'ZBEK SHOIRALARI IJODIDA MAQOLLARNING
QO'LLANILISHI VA ULARNING SHE'RIYAT BADIYYATIDA TUTGAN
O'RNI.**

Zumrad Masharipova

Urganch Davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi o'zbek shoiralari ijodida xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi bo'lgan maqollarning qo'llanishi hamda ularning she'riyat badiyyatida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shoiralar o'z asarlarida xalq maqollari va hikmatli so'zlardan keng foydalangan holda, o'zbek she'riyatiga badiiy rang-baranglik, mazmuniy chuqurlik va milliy ruh olib kiradilar. Maqollarning obraz yaratish, g'oyaning kuchayishi, she'r ifodasining ta'sirchanligi va an'anaviylikni saqlashdagi o'rni ko'rsatiladi. O'rganish natijasida, maqollar shoirlar poeziyasida ham real hayotiy manzarani, ham xalq donishmandligi va tajribasini yetkazishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'layotgani xulosalanadi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek shoiralari, she'riyat, maqollar, badiiylilik, xalq og'zaki ijodi, obrazlilik, an'ana, milliy ruh, poetika, tijorat.*

Shoirlarning she'rlarida folklorizmlarga, xususan, maqollarni istifoda qilishga yanada ko'proq ahamiyat qaratilgan. Buning bosh sabablaridan biri maqollarda ta'kid, bayon, maslahat, da'vat, buyruq kabi ohanglarning mujassamlashganidadir. Matallarda esa qisqalik, hozirjavoblik, obrazlilik kuchli bo'lib, frazeologizmlarga yaqinlashadi.¹ Mazkur janralarda ko'zga tashlanadigan omillar asar voqealaridagi rang-barang hissiy ohanglarni obrazli tarzda aks ettirishda ijodkorlarga tayanch vazifasini o'taydi. Shoiralar ularni o'rni bilan aynan, aksariyat hollarda esa o'zgartirib qo'llaydi.

¹ Костомаров В.Г., Верещагин Е. М.О пословицах, поговорках и крылатых выражениях. // Русские пословицы, поговорки и крылатые выражения. –М.: «Русский язык», 1979. –С.7. (238)

O'zbekiston xalq shoirasi H.Xudoyberdiyeva "Qizchalarday bu gullar" sarlavhali she'rida "It hurar, karvon yurar" maqolini butunlay o'zgartirib qo'llaydi:

Itlar huraversin deb,
Aytasan ranging siniq.
Senga yetib bormaydi,
Bu itlarning tovushi.
Tag'in yetib bormaydi,
Yellardagi xo'rsiniq.
Hurkib turgan gullarning,
Qizday isib sovushi.²

Gul rangining sinishi, uning hurkishi, qizday isib sovushi kabi satrlarda tashxis san'ati qo'llanilgan. Jonsiz gullarga qiz bolaga xos xatti-harakatlar ko'chirilgan. Shu o'rinda "It hurar, karvon yurar" maqolini faqat insonlargagina emas, balki jonsiz narsalarga ham qarata qo'llash mumkinligini H.Xudoyberdiyevaning yuqoridagi misralari orqali ham guvohi bo'ldik.

"It hurar, karvon yurar" maqolini qo'llagan holda yaratilgan she'rlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Badiiy ijodida xalq og'zaki ijodining nafasi ufurib turadigan O.Hojiyeva bu maqolni, maqol mazmuni saqlangan holda quyidagicha qo'llaydi.

Safro kuydi ko'ksimda,
Zardobli gumon o'tdi.
Itlar izg'ib izimdan,
Ig'volar yomon **o'tdi**.

O.Hojiyeva "Tasdiq" sarlavhali yana bir she'rida bu maqolni aynan keltiradi:

Yaxshi o'tar, yomonlar o'tar,
Itlar hurar, karvonlar o'tar³.

² Xudoyberdiyeva. H.O'zbekiston nashriyoti. Toshkent:72-bet.

³ Hojiyeva O. Tanlangan asarlar.Sharq nashriyoti.Toshkent:2022.159-b.

She'rda yaxshi-yomon antonimlari orqali (tazod) san'ati qo'llanilgan. Shoir she'r orqali sulton ham, chilton ham, yaxshi ham, yomon ham abadiy emas, vaqt ham itning hurishiday o'tib ketaveradi, demoqchi.

“It hurar, karvon yurar” maqoli H. Ahmedova she'rida quyidagicha qo'llaniladi:

Va muzlar dunyoning so'nggi vahshati,

Hayqirib o'lganday qadim devona.

Itning hurishiday o'tadi kunlar

Qolgani afsona, afsona⁴...

H.Ahmedovaning bu she'rida esa asl folklorizm mavjud. Badiiy asar mohiyatiga singdirilayotgan folklor materiali asl holida yoki qayta ishlangan tarzda olinishi mumkin. Shunga tayanib folklorizmlarni qayta ishlangan folklorizmlar va asl folklorizmlarga bo'lib o'rganish holati olimlarimiz tadqiqotlarida kuzatilgan. Qayta ishlangan folklorizmlar, ko'p hollarda folklor materialining shaklini o'zgartirib, ma'nosini saqlash usulida hosil qilinadi.

Z.Mo'minova “Tog' tog' bilan uchrashmaydi” nomli she'rida xalq maqolidan maqol mazmunini o'zgartigan holda, maqolni ham qisman keltirgan holda quyidagicha foydalanadi:

Qancha **itlar hurdi** menga,

Dildog' bo'ldim, dildog' bo'ldim.

Qon yig'ladim o'z-o'zimga,

Sabog' bo'ldim, sabog' bo'ldim.

Shoir odamlar tomonidan yetkazilgan ozorlardan “dilim dog' bo'ldi, ko'z yosh to'kdim, oqibat o'zim o'zimga saboq bo'ldim”, deydi. She'r orqali maqol mazmuniga rioya qilishga, endi “itlar”ning hurishiga parvo qilmaslikka ishora qilmoqda.

G.Asqarovaning “Rashk kasali” sarlavhali she'rida ham “It hurar-karvon yurar” maqolini o'zgartirib qo'llaydi:

G'iybatchilar gap qildilar,

⁴ Ahmedova H.Tashbeh.110-bet.

Pok nomimni chap qildilar.

Miyig'ida kulib sekin

Kim u menga **hurgan**, dedim⁵.

Shoira ig'vogar insonlarning ta'na - yu malomatlariga bosiqlik bilan kulib qo'yadi. Itlarning hurishiga e'tibor bermay karvon o'tgani kabi g'iybatchi insonlarga parvo qilmay, o'z yo'lida davom qiladi. Maqol mazmunini nihoyatda mahorat bilan ochib beradi. Shu o'rinda uchinchi va to'rtinchi misralarda she'r talabi buzilganini ta'kidlab o'tishimiz joiz. Birinchi va ikkinchi misra a-a tarzida qofiyalangan, uchinchi va to'rtinchi misralarda qofiya talabi butunlay buzilgan.

Maqollarda ibratli fikr aytiladi. Biroq har qanday ibratli fikr maqol bo'lmaydi. Ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun muayyan shartlar mavjud. Ana shunday shartlardan biri maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar davomidagi hayotiy tajribasida sinalgan bo'lishligidadir. Hayotiy tajribasida sinalgan fikr esa kishini ishontira oladi. Maqolda ifodalangan ibratli fikr alohida shaxslargagina emas, balki umuminsoniy xarakter kasb etishida ko'zga tashlanadi. Ibratli, sinalgan umuminsoniy fikr ixcham, mukammal, badiiy shaklga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Qorni ochga non bo'lsa bas,
Ko'zi ochga dunyo yetmas⁶.

Maqollar ketma-ket kelganda biri ikkinchisini inkor etgandek, bir-biriga ziddek tuyilishi mumkin. Aslida esa qo'llanish vaziyatiga qarab turli - tuman ma'no -mazmunni ifodalaganligini unutmasligimiz kerak. Yuqoridagi xalq maqoli va quyidagi

H. Ahmedovaning she'riga e'tibor beramiz:

Shundan topdim hayot falsafasini,
Boylikda yuvilmas na dard, na alam.

Ochlikda o'lganni ko'rmadim, ammo

O'lsa ochko'zlikdan o'ladi odam⁷.

⁵ Asqarova G.Erkalik imtiyozi.-G'.G'ulom.Toshkent:2012.226-b.

⁶ Мирзаев Т, Мусақулов А, Саримсоқов Б Ўзбек халқ мақоллари.-Шарқ.Тошкент:2012, 297-6.

⁷ Ahmedova H.Tashbeh. Akademnashr.Toshkent:2017. Hikmat she'ridan. 188-b.

Keltirilgan xalq maqoli va H. Ahmedova she'ridagi mazmun bir - biriga zid emas. Yoki mazmun jihatdan biri ikkinchisining buzilgan varianti ham emas. Ular o'z ma'nosiga ega mustaqil maqol va maqol mazmunini ifodalovchi mustaqil she'rdir. Shoirani yana bir she'rda mazkur maqoldan foydalanadi:

Yo'qchilik hayvonni ayladi odam,
Bu ne sinoatki, emasdir ayon?
Vo ajab, bir-birin go'shtin talashar,
To'qchilik odamni aylabdi hayvon⁸.

Ma'lumki, insoniyat yashash uchun kurashadi. Kimdir boriga qanoat va sabr qilib, kimdir yig'ilgan dunyosidan-da ko'prog'iga ega bo'lish istagida yashaydi.

Maqolda esa ikki xil toifadagi kishilarning hayot tarziga boqib, fikr va shukr qilishimiz to'g'risida ogohlantiriladi. Boylik shunchaki "qo'l kiri" bir zumda yo'q bo'lishi mumkinligi, kerak bo'lsa dard - u - alamga shifo bo'lmasligini, keragidan ortiq boylikni hech kim ortib ketolmasligi, qanoat va mehnat, ko'ngil xotirjamligi chiroyli xulq bilan yashash kerakligini ta'kidlaydi. Maqoldagi "ko'zi och" birikmasi yuqoridagi she'rda "ochko'z so'zlari bir ma'no ifodalaydi. Navbatdagi she'rdagi yo'qchilik, to'qchilik so'zlari orqali (tazod) san'ati yuzaga keladi. Shoirani xalq maqoli mazmunini har ikkala she'riga ham mahorat bilan singidira olgan.

Maqolda xalq o'zining og'ir sotsial ahvolini, kambag'allik, qashshoqlik va bularning oqibatida ro'y beradigan och-yalang'ochlik hamda turli musibatlarni tasvirlar ekan, qiyoslash usulidan foydalanib boylarning turmushi bilan kambag'allarning turmushi orasida osmon bilan yercha farq borligini, zamon ham, baxt - saodat ham boylarga kulib boqishini, ularning oshig'i hamisha olchi bo'lishini, shodlik ustiga shodlik kelishini, kambag'allarning boshiga esa ketma - ket musibat va kulfatlar yog'ilishini, g'am - qayg'u kelishini ko'rsatadi. Maqol mazmuni qo'llangan she'rlarda davr muammolari qalamga olinadi. "Bor bo'lsa, ko'ra olmaydilar, yo'q bo'lsa, bera olmaydilar" xalq maqoliga xos mazmunni ifodalovchi satrlarni G.Asqarovning quyidagi misralarida ham guvohi bo'lamiz:

⁸ Ahmedova H, Afsun, A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent:2007, bet 75.

Yo'qchilikda itga yo'ldosh ayladilar,
To'qligimda xonga qardosh sayladilar⁹.

Xalq maqolida ham, H.Ahmedovaning “O'lsa ochko'zlikdan o'ladi odam” misralarida ham, G.Asqarovaning mazkur she'rida ham “Odamlarning tabiati juda qiziq. Og'ir kuningda, yo'qchilikda senga yordam bermaydilar, o'zlarini sendan olib qochishga harakat qiladilar - u, bor bo'lsa, ko'ra olmaydilar, sen haqingda orqavaratdan gap-so'z qiladilar, ig'volar tarqatadilar. Bu qanaqasi, axir shu ham insofdanmi?!” demoqchi bo'lganlar. She'rda “yo'qchilikda - to'qligimda” satrlari vositasida tazod san'ati qo'llanilgan.

Umuman olganda, mahoratli shoirlar istifoda qilinadigan maqollarga o'zgartirish kiritishda tasodifiylikka yo'l qo'ymaydi, balki o'zgartirishga ijodiy yondashib, undan asarning badiiy - estetik ruhini yuksaltirishda samarali foydalanadilar, an'anaviy iboraga sayqal berib ma'noni kuchaytiradilar.

She'riyatda ijtimoiy tuzum hodisalarini ham xalq og'zaki ijodi namunalari, shu jumladan, maqollar vositasida yuzaga keltirish ijodkordan alohida mahorat talab qiladi. O.Hojiyeva “Sitorai Mohi Xosa” sarlavhali she'rida “Sulton suyagini xo'rlamas” xalq maqolini aynan qo'llaydi:

Sulton-ku, suyagin asli xor etmas,

Mohi Xosam, senga ming bahor yetmas,¹⁰.

“Sulton suyagini xo'rlamas” maqolidan Alpomish dostonida ham foydalanilgan. Aka-uka Boybo'ri va Boysari o'rtasidagi nizo tufayli uka o'z yurtidan chiqib ketadi. Begona joylarda shuncha azob-uqubatlarga duch keladi. Jigarlar o'rtasidagi darz ketgan oqibat tufayli nafaqat oila, balki butun bir xalq boshiga zulm va qashshoqlik azobi tushadi. “Alpomish” dostonida ilgari surilgan g'oyada, O.Hojiyevaning xalq maqoli ta'sirida yozilgan she'rida ham totuvlik yo'q joyda butun bir oila aziyat chekishi tasvirlanmoqda.

Z.Mo'minovaning “Go'dakning tomchi yoshida” nomli she'rida ham xalq maqoli aynan qo'llanilgan. Shoira maqol va “Alpomish” dostoni voqealari

⁹ Asqarova G. O'sha manba.-Toshkent.

¹⁰Hojiyeva O. Tanlangan asarlar. Toshkent:Sharq nashriyoti.2022.130-b.

ta'sirida folklorizmni yuzaga keltiradi. She'r orqali "jahll bilan yuksaklikka erishib bo'lmaydi, yolg'iz insonning qo'lidan hech nima kelmaydi", degan fikrni ilgari surmoqda. Boysarining o'z yurtidan bosh olib ketib sargardon bo'lgani tasviri vositasida go'daklar ham ko'z yosh to'kkanini mahorat bilan o'z ijodi zamiriga singdirmoqda:

"Sulton suyagini xo'rlamas",

Sharimsor ultonni ko'rdim.¹¹

Garchi tirikliklarida bir-birlari bilan taxt talashib, mol-dunyo, yurt, meros talashib, o'zaro bir - birlariga choh qazishib, "yuz ko'rmas" bo'lib ketishgan, hatto bir-birlarini qatl qilishdan qaytmagan bo'lsalar-da, vafotlaridan keyin jasadlarini xor qilmasdan, izzat-ikrom bilan, tantanali ravishda o'z ota-bobolari dafn etiladigan maxsus maqbaralarga ko'mganlar. Ana shu holatlarni misolga olib aytilgan "Sulton suyagini xo'rlamas" maqoli bilan majozan:hokim sinf vakillarining bugungi ko'rinishlarini G.Asqarova "Otamning qarzi" sarlavhali she'rida ham "Sulton suyagini xo'rlamas" maqolini keltirgan holda o'z og'riqli nolalarini izohlaydi:

Sultonlari suyagini xorlatmadi,

Zari borlar o'zini hech xo'rlatmadi¹².

Guruch ko'lmaksiz bo'lmagani kabi bugungi kunda ham bir - birlarini qo'llab-quvvatlaydigan, o'z yaqinlarini aslo xor qilib qo'ymaydigan, o'z mansabini suiiste'mol qilib, yaqin qarindosh - urug'larini yuqori lavozimlarga (u bunga loyiqmi, noloyiqmi-bundan qat'i nazar) joylashtirib qo'yadigan va, aksincha, uquvli, ishbilarmon, ishda ijobiy o'zgarishlar qila oladigan salohiyatli xodimlarni (begonaligi uchun) yaqiniga yo'latmaydigan shaxslarga nisbatan achchiq kinoya tarzida "Sulton suyagini xo'rlamas" maqolini aynan keltirilgan holda lirik qahramon hasrat to'la haqiqatlarini qog'ozga sochadi. She'rda maqol asl folklorizm talablariga to'liq javob beradigan tarzda qo'llanilgan.

Hozirgi o'zbek she'riyatida ham qayta ishlangan folklorizmlar keng

¹¹ Mo'minova Z. Bolaga kitob bering.-Akademnashr, Toshkent:2022, 77- b.

¹² Asqarova G. O'sha manba. 141-b.

qo'llaniladi. Qayta ishlangan folklorizmlar, folklor materiallarining shaklini o'zgartirib, ma'nosini saqlash usulida hosil qilinadi. G.Asqarovaning yuqoridagi misralari davomini kuzatamiz:

Suvlar kelib-kelib yana **soyga oqdi**,
Zamonlari borib-borib **boyga boqdi**.¹³

Shoira mazkur she'rda "Boy boyga boqar, suv soyga oqar" xalq maqolini o'zgartirib, ammo mazmunini saqlab qo'llash orqali ezuvchi sinf vakillari mehnatkash xalqni ezib ishlatish, qiynash, o'zlari uchun tobora yaxshiroq yashash sharoit yaratish, ko'proq mol - dunyo orttirish yo'lida bir - birlarini qo'llab - quvvatlashi kabi manzaralar tasvirlangan. Mazkur ma'noni ifodalaovchi bu maqolning bir nechta variantlari bor: "Suv soyga oqar, pul - boyga", "Boy ham boyga, xudoy ham boyga", "Boy boyga tirishar, Kambag'al kambag'alga bo'lishar", "Boyning eshigini boy ochib boyvachcha bekitadi"¹⁴. Eskirgan tuzumda ham ayrim kimsalarning adolatsizligidan kuyunsa-da, bor alamini hech bo'lmasa she'rga to'kib solish ham ayol kishi uchun katta jasorat.

O.Hojiyeva "Yana shu cho'ponning qizi Gulposhshoning to'yida kuyovi o'zbek G'ofurjonga deganlari" sarlavhali she'rida "Boshga tushganini ko'z ko'radi" xalq maqolini aynan keltiradi:

-Boshga tushganini mana ko'z ko'rdi,
Taqqdirin shu yurtga qo'sh - egiz ko'rdi¹⁵.

Diniy rivoyatlarga ko'ra har bir kishining taqdiri peshonasiga yozilib qo'yiladi. Har bir inson o'sha yozuvga ko'ra turmush kechiradi. Shoiraning lirik qahramoni ham peshonasiga yozilganini, boshiga tushganini ko'radi, xalq maqolida ham aynan shu mazmun ifodalanadi.

Z.Mo'minova ham "Boshga tushganini ko'z ko'rar" maqolini aynan keltiradi:

Boshga tushganini ko'z-la ko'rdilar,

¹³ Asqarova G.O'sha manba. 141- b.

¹⁴ O'zbek xalq maqollari.-Toshkent:Sharq, 2012.

¹⁵ Hojiyeva O. Tanlangan asarlar. Toshkent:Sharq, 2022, 214-b.

Turnalar qaytguncha omon bo'laylik¹⁶.

Kunlar isishi bilan turnalarning kelishi, sovushi bilan ularni yana issiq o'lkalarga qaytib ketishi bor haqiqat. Ammo shoira she'r orqali qushlarning kelib-ketishi emas, butunlay boshqa mazmunni ifodalamoqchi. Vaqt bir joyda mudom turmaydi. Xalq milliy urf-odatlariga, o'z tiliga, ozodligiga erishgunga qadar ne-ne sinovlarni boshdan kechirmadi?! Bu orada ro'y bergan hodisalarni "ko'zlar ko'rdilar"- deydi shoira. Turna va qumrilar vositasida yurtga tinchlik, xalqimizning asriy orzu-armonlari ro'yobi, buyuk ajdodlarimizning loyga qorilgan pok nomlari tiklanganini tasvirlamoqda. She'r yakunida xalqimizning bundan - da yorqin istiqbolini ko'rishni orzu qilayotganini, "Turnalar qaytguncha omon bo'laylik" misralari orqali payqab olamiz. Z.Mo'minova mahoratli shoira, shu o'rinda quydagi she'rda, she'r talabi buzilishiga yo'l qo'yganini kuzatamiz. Birinchi va uchinchi misralardagi qumrilar va ko'rdilar so'zlari qofiyadosh bo'lolmaydi. Qumri so'zining o'zagi "qum", ko'rdi so'zining o'zagi "ko'r" ko'rinadi, she'r talabi buzilgan. Uchinchi va to'rtinchi misralarda qofiya mutlaqo yo'q bo'lgani bois she'r mazmun jihatdan bog'lansa - da, ohang jihatdan bog'lanmagan.

Z. Isroilova "Oldingda oqqan suv" nomli she'rda "oldingdan oqqan suvning qadri yo'q" xalq maqolini She'ning birinchi misrasida ayna keltiradi:

Oldda oqqan suvning qadri yo'q, derlar,

Go'rlikda noshukur hukmi deb yurdim.

Mana, qancha suvlar oqib o'tdilar,

Birovni suvga zor, birni sher ko'rdim¹⁷.

Hayotda ba'zan shunday voqealar ro'y beradi, kishi biror ehtiyoji tug'ilib qolsa, o'z yaqinlaridan so'ramaydi - da, butunlay begona bo'lgan olisdagi kishilarga murojaat qiladi. Bu esa uning o'z yaqinlariga ishonmagani, yoki ularning qadriga yetmagani tufaylidir. H. Xudoyberdiya ham yuqoridagi xalq maqolini "Oldimdan oqqan suv" sarlavhali she'rda maqoldan uning asl mazmunini keltirgan holda foydalanadi:

¹⁶ O'zbek zamonaviy she'riyati antologiyasi.-Toshkent:O'zbekiston, 2022, 311-b.

¹⁷ Zulfiya, *Bahor keldi seni so'roqlab*.-Toshkent:2015, Yangi asr avlodi. 157-b.

Oldimdan oqqan suv, beqadr suvim

Umrida bir yayrab yozilmaganim¹⁸.

Shoiraning bu she'ri onasiga bag'ishlangan. Ba'zan hayotda shunday hodisalar bo'ladiki, inson nimagadir, kimgadir ehtiyoji ko'p ekanini aynan o'sha qadrlil ne'matini yo'qotandan keyin anglab yetadi. She'rdagi "suv" ko'chma ma'no (metafora) ifodalamoqda. Shoirasuv obrazi vositasida onasini tasvirlayapti. "Ko'ngildan ko'ngilga yo'l bor", "Dil - dilning oynasi", "Dil - dilning zahrini oladi", "Qalb - qalbgal elchi", "Yurak-yurakka darak beradi", "Ko'ngil - ko'ngildan suv ichar". Bu maqollar orqali inson qalbi shundayki, u o'zgalar qalbini tushinadi, biladi. O'zga qalbni o'ziga oshufta qilmoq uchun unga yo'l topmoq - kifoya deyilmoqda.

H. Xudoyberdiyeva quyidagi she'rida "Egilgan boshni qilich kesmas" xalq maqolini qo'llaydi:

Mudom egik boshimizni qilichlar kesdi,

Endi elga egilmas bosh bergin, Xudoyim¹⁹.

Kishi mag'rurlik, takabburlik qilmasdan kamtar bo'lsa, har qanday qahrli insonga ham ko'nglini keng tutsa, turli mushkul holatdan ham omon chiqishini anglatuvchi "Egilgan boshni qilich kesmas" xalq maqoli shoiraning she'rida butunlay teskari mazmunda ifodalanadi. She'rda ijtimoiy tuzum voqealari tasvirlanganini ilg'ash mushkul emas. Mavjud muammolarni bartaraf qilish uchun kimgadir murojaat qilinsa-yu, iltimos rad etilsa, bosh egilishi tabiiy. Ana shunday hollarda ta'na - yu, malomatlariga qolib ketgan erkparvar kishilar qismati tasvirlanmoqda. Yig'lagandan foyda bo'lmaganidan keyin "ko'zim sahro bir tomchi yosh bergin, Xudoyim" - deb, Xudoga iltijo qiladi. "Endi elga egilmas bosh bergin, Xudoyim" - satrlari orqali inson qadri yuksalishini orzu qilishi oydinlashadi.

G. Asqarovaning she'rlariga xos jihatlardan biri shundaki, sarlavha she'r kompozitsiyasida ochqich vazifasini o'taydi. Shoirashe'r jozibasini, ta'sir kuchini oshirish uchun folklorning maxsus turi janridan foydalanib, folklorizmni

¹⁸ Xudoyberdiyeva H. Saylanma. Toshkent:Sharq, 2019, 340-b.

¹⁹ Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar.-Toshkent:Sharq, 2019, 521-b.

yuzaga keltiradi:

“Kekkayganga kekkaygin”,

Boshing ko‘kka yetguncha²⁰.

Shoira she’rda manmanlik mazmunini anglatib, “Kekkayganga kekkay, chekchayganga chekchay” tarzida ham ifodalanuvchi maqolni “Kekkayganga kekkayib yasha” tarzida qisman, biroq maqol mazmunini berib keltiradi. “Bir boshga - bir o‘lim” xalq maqolini ham “Bir go‘zal o‘l. Bir bor o‘larsan” tarzida ifodalab, aynan maqol mazmunini yoritadi:

Bir go‘zal o‘l. Bir bor o‘larsan.

Bir buyuk o‘l. Beasos o‘lma.

“Kekkayganga kekkayib yasha”,

Beg‘urur-u beqasos o‘lma²¹.

²⁰ O‘zbek xalq maqollari.- Toshkent:1958, 104-b.

²¹ Asgarova G. O‘sha manba. 7-b.